

BOLALARNI TA’LIMY FAOLIYATGA JALB ETISHNING NOAN’ANAVIY USULLARI

Fargona shahar 63 DMTT tarbiyachisi

Saydullayeva Gulssal Umidjon qizi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada noan’anaviy texnologiyalarni tanlash o‘qitish usuli, nazariyadan amaliyotga - o‘qitishning har bir bosqichida tegishli muvozanatni saqlagan holda, akademik bilimlarni pragmatik bilimlar bilan uyg‘unlashtirish haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar

noan’anaviy mashg‘ulotlar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, noan’anaviy metodlar texnologiyasi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan nafosat tarbiyasi mazmuni va mohiyati istiqbolda yoshlar madaniyatining pirovard natijada esa jamiyatimiz erishajak kuch-qudrat, farovonlik, madaniylik, ma’rifiylik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois bolalarning ma’naviy nafosatlik kamolotini puxta ta’minlash omillarini taqdim etish Respublikamiz pedagogika fanining bugungi kundagi dolzarb muammolaridan biridir. Zero, mamlakatimizning ertangi kunini ta’kidlab o‘tkanimizdek, intellektual zakovat, nafosatli tarbiyalangan shaxsning ma’naviyati va ma’rifati belgilab beradi. Shunday ekan, bugungm kunga qadar maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning aql-zakovatini charxlash, ma’naviyatini boyitib borish, badiiy-nafosat saviyasini o‘irishda etarli darajada qo‘llanmay kelingan manbalarga aloxida e’tibor qarash ma’lum bo’shliqlarni to‘ldirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan,

1. “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi.

2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o‘stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg‘ulotlari)

3. San‘at markazi (Rasm, applikasiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim sohasida xalqaro aloqalarga keng o‘rin berilib rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Germaniya, Gollandiya tajribalari o‘rganilib, hududiy va milliy xususiyatlarimiz hisobga olingan holda, ijodiy qo‘llanilmoqda.

Mariya Montessori ilmiy izlanuvchan, tabiatshunos, vrach, psixolog Italiya yashab ijod etgan, Gollandiyada vafot etgan. Uning maktabgacha tarbiya sohasida pedagogik faoliyatini butun dunyo xalqlari biladi. U bolalar bilan ishlash jarayonida bolalarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni: ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, bilim darajalarini o‘rgandi. Shularga asosan didaktik o‘yinlar va didaktik materiallar yaratdi. Uning fikricha pedagogika bolaga yordam bermaydi balki, tarbiyachiga yordam beradi. Haqiqatdan ham shunday. O‘rgatish uslubi bolalarning istagi, qiziqishi, mushohada qilishi bilan bog‘lanmas ekan, bu uslubning samarasi to‘g‘risida o‘ylamasa ham bo‘ladi. Bolalik inson umrining bir bo‘lagidir. Inson butun umr bo‘yi oladigan bilimning eng ko‘p qismini ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshida egallaydi. Yoshligidan istak, hohishi bo‘yicha harakat qilishi, o‘ylashi mustaqil fikrlashi uchun oilada ham, bolalar bog‘chasida ham kattalar tomonidan sharoit yaratilishi zarur. Bola “kim bilan”, “qachon”, “nima bilan” shug‘ullanilishini o‘zi hal qilsin. Masalan: hal qilishning barcha bosqichlarini o‘zi yecha olsagina mantiqiy fikrlashi rivojlanib boraveradi. Savolga to‘g‘ri va tez javob berishi uchun kattalar shoshilmasligi kerak. Kech bo‘lsa ham bola o‘z xatosini o‘zi to‘g‘rilasin, o‘z fikrining to‘g‘riligini o‘zi dadil turib isbotlay olsin. M. Montessori pedagogikasining ahamiyati xuddi shunday sifatlarni tarbiyalashga, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilganligidadir. U yaratgan o‘yinlar sezgi organlari: ko‘rish, eshitish, teri-tuyush. Hid bilish, ta‘m bilish orqali narsa va hodisalarni bilib olishga mo‘ljallangan “kvadrat tuz”, “bo‘sh katakni to‘ldir”, “nuqtalat o‘yini”, “Loto”, “Rangiga qarab o‘rmini top”, “O‘z o‘rmini top”, “Qaysi biri ortiqcha” o‘yinlari shular jumlasidandir.

Montessori asos solgan bolalar uylariga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jalb qilinib, u yerda tarbiyaning o‘ziga xos tizimi amalga oshirildi. U tuyg‘u organlarini tarbiyalashni birinchi o‘ringa qo‘yadi, buning uchun tegishli didaktik material ishlab chiqadi. Mashqlar sistemasi bolalarda muayyan ko‘nikma va malakalarni: predmetlarni shakliga, vazni va rangiga qarab farqlash, xilma-xil ovoz va hidlarni bilish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan. Montessoru foydalanadigan didaktik materiallar o‘z-o‘zini nazorat qilish prinsipiga muvofiq yaratilgan bo‘lib, bolalarga, pedagogning ishtirokisiz, mustaqil shug‘ullanish imkonini beradi. Lekin bunda sezgi organlarining rivojlanishi nutqning o‘ssishi bilan bog‘lanmas edi. Kattalar tomonidan majburlash, “uni o‘yna”, “buni o‘yna”, “xato qilding”, “mana bunday bajar” qabilida ish tutish M. Montessori pedagogikasiga zid uslublardir. Uning ta‘limi “O‘zim bajarishim uchun menga yordam ber” qabilida ish yuritishga asoslangandir. Bola erkin “kim bilan”, “nima bilan”, “qachon” tushunchalarini o‘zi hal qilsin. O‘zi ko‘rib, eshitib, harakat qilib, paypaslab mushohada, ya‘ni mantiqiy fikrlay olsin. Maktabgacha ta‘lim sohasida pedagogik jarayonga hozirgi kun talablari bolalarni erkin fikrlashga undovchi qanday topshiriqlar, ta‘limiy oyinlardan foydalanish lozimligi togrisidatushuncha beradi. Bolalarda

erkin , xur fikrlilikni tarbiyalash istagi xalqimizda qadimdan mavjudligini ta’kidlash uchun Xoja Nasriddin xaqidagi rivoyatlardan birida mazkur mavzuga dahldor bo‘lgan kichik bir korinish saqlanib qolganligini quyidagicha hikoya qiladi.

-Togri , bolam buyurgan ishlarimni bekami-ko`st bajaradi. Biroq uning aybi shundaki, men buyurmagan ishlarni bajarishni bilmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta’limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo‘lib ulg‘ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo‘lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.
4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay‘at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
5. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.
6. “Bolangiz maktabga tayyormi?” O‘zb Res. Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi, Ma’rifat-Madadkor nashriyoti.
7. Sabirov, O. I., Yusupov, D. B., Akbarova, N. A., & Sapaev, U. K. (2022). On the theoretical analysis of parametric amplification of femtosecond laser pulses in crystals with a regular domain structure. *Physics of Wave Phenomena*, 30(4), 277-282.
8. Азаматов, З. Т., Редкоречев, В. И., Абдурахманов, К. П., Кулагин, И. А., & Акбарова, Н. А. (2016). Лазерная интроскопия кремниевых пластин. In *Голография. Наука и практика* (pp. 405-408).
9. Сабиров, О. И., Акбарова, Н. А., & Сапаев, У. К. (2022). К теории параметрического усиления коротких лазерных импульсов в нелинейных фотонных кристаллах. «Узбекский физический журнал», 24(1), 8-9.
10. Saydiyevna, K. G. (2023). THE USE OF ALLUSIVE UNITS IN POETRY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1132-1136.